Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari	826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonovna	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services.....	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Faxriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhrukh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafuz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik karakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortojiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiyeva Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darolarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish.....	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoralievna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	



DEMOGRAFIK VAZIYATNING MOHIYATI VA TARKIBI

Bomurodov Sanjar Bekturodovich

Qarshi davlat uiversitet dotsenti, Falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: Bir qator mutafakkirlarning fikri tahlil qilinar ekan, demografik vaziyat – bu aholining konkret ijtimoiy-tarixiy davrdagi portretini va ahvolini ifodalaydigan tushuncha ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Demografik vaziyatning aholi miqdori, tarkibi va joylashuvi kabi tarkibiy komponentlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: demografiya, demografik vaziyat, demografik o'zgarish, aholi miqdori, aholi tarkibi, aholi joylashuvi, demografik jarayon.

Abstract: An analysis of the views of several scholars highlights that the demographic situation is a concept reflecting the portrait and condition of the population during a specific socio-historical period. The structural components of the demographic situation—such as population size, composition, and distribution—have been identified.

Key words: demography, demographic situation, demographic change, population size, population composition, population distribution, demographic process.

Аннотация: Анализируя взгляды ряда мыслителей, подчёркивается, что демографическая ситуация представляет собой понятие, отражающее портрет и состояние населения в конкретный социально-исторический период. Определены такие структурные компоненты демографической ситуации, как численность населения, его состав и размещение.

Ключевые слова: демография, демографическая ситуация, демографические изменения, численность населения, состав населения, размещение населения, демографический процесс.

KIRISH

Mamlakatimizda xalqimizning turmush tarzi farovonligini oshirish borasida qilinayotgan ishlar kishilik jamiyatidagi har qanday o'zgarishlarni e'tibordan chetda qoldirmasligimizni talab qiladi. Demografik vaziyat bilan bog'liq o'zgarishlar ham har doim ijtimoiy falsafaning asosiy masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida kishilik jamiyatidagi demografik vaziyat ancha keskinlashdi. Bu esa demografik vaziyatning mazmun-mohiyati va tarkibi haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lishimiz lozimligini belgilaydi. Demografik vaziyat har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Aholining soni, yosh-jins tarkibi, hududlar bo'yicha taqsimlanishi hamda tabiiy va mexanik harakat ko'rsatkichlari jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Demografik jarayonlarning chuqur o'rganilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni samarali rejalashtirish, mehnat bozori ehtiyojlarini aniqlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada demografik vaziyatning mohiyati, uning asosiy tarkibiy qismlari hamda ushbu jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, demografik jarayonlarning mamlakat taraqqiyotiga ta'siri, mavjud tendensiyalar va ularni boshqarishning zaruriy yo'nalishlari ilmiy asosda yoritiladi. Demografik vaziyatni chuqur anglash – ijtimoiy barqarorlik va kelajak avlodlarning farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqolada demografik vaziyat tushunchasi haqidagi bir qator mutafakkirlarning fikri tahlil qilindi va demografik vaziyatning aholi miqdori, tarkibi va joylashuvi kabi tarkibiy komponenti aniqlandi. Tadqiqotda dialektika, mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

XX asrning o'rtalariga kelibgina demografik vaziyatni o'zgacha nazariy-metodologik pozitsiyadan tadqiq etish zaruriyati yuzaga keldi. Bu davrga kelib, jahon iqtisodiyotida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun inson omiliga katta e'tibor berila boshlandi. Buning oqibati o'laroq, inson omili uchun qilingan xarajatlar XX asrning 50-yillariga qadar mehnat samaradorligini oshirishning uchdan bir qismini ta'minlagan bo'lsa, 50-yillardan so'ng uning uchdan ikki qismini ta'minlaydigan bo'ldi.

Natijada mulkdorlarning qariyb barchasi ishlab chiqarish tarkibidagi bunday o'zgarishlarni inobatga olishga, jumladan xodimlar ish haqini oshirishga, ularning ta'lim olishi va sog'lig'ini tiklashi uchun salmoqli mablag'lar ajratishga majbur bo'ldilar. Oxir-oqibatda inson uchun ajratmalar kapitalni joylashtirishning eng qulay yo'llaridan biriga aylandi. Shu sababdan ham taniqli iqtisodchi P. Xeyne o'zining "Iqtisodiy tafakkur tarzi" nomli kitobida: "AQShdagi daromadlarning asosiy qismi inson kapitali bilan bog'liq mulklardan olinadi", – deb yozgan edi.

Inson omili uchun ajratilgan mablag'lar salmog'i hisobiga bir tomondan kishilarning hayot tarzi o'zgardi va turmush darajasi yaxshilandi, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish jarayonida insonning roli yangicha talqin etiladigan bo'ldi. Bunday sharoitda aholining joylashishi, tarkibi, yangilanishi bilan bog'liq jarayonlar nafaqat nazariy-gnoseologik, balki amaliy-iqtisodiy ahamiyat ham kasb eta boshladi. Ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida mutaxassislar demografiya aholi miqdorining oddiy dinamikasini o'rganish bilan cheklanmasligi zarurligini ta'kidlay boshladilar. Ularning fikricha, demografiya fanining predmeti aholining qayta ishlab chiqarilishi jarayoni bilan bog'liq ekan, u avlodlar almashinuvi, tug'ilish va o'lish jarayonlari orqali aholi miqdori va tarkibining uzluksiz yangilanib borishini o'rganmog'i darkor. Boz ustiga, demografiya ushbu jarayonlarning oddiy konstatatsiyasi bilan shug'ullanmaydi. U mustaqil fan sifatida aholining o'zgarishi qonuniyatlari va ijtimoiy shart-sharoitlarini tahlil qiladi. Aholining joylashishi, ko'payishi yoki kamayishi, tug'ilishi yoki o'lishi, nikoh va ajralish jarayonlarini ham aynan shu nuqtai nazardan tadqiq etadi.¹

Demografiyaning predmeti haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi demografik vaziyat va uning tarkibiga doir bilimlarning ham yangilanishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotchilar "demografik vaziyat" tushunchasiga turli nazariy-metodologik pozitsiyadan ta'rif berishga urinib ko'rdilar. Ilmiy manbalarda keltirilgan ta'riflarning o'ziga xos tomoni shundaki, ularning barchasida demografik vaziyatning u yoki bu aspektiga yoki elementiga alohida e'tibor beriladi.

Adabiyotlarda eng ko'p uchraydigan ta'rif quyidagicha: demografik vaziyat – "aholi taraqqiyotiga doir umumiy tendensiyalarning, muttasil almashinib boruvchi demografik holatlar izchilligining, aholi qayta ishlab chiqarilishiga doir asosiy qonuniyatlarining ifodasidir".²

Yirik demograf A. Kvashaning ta'rifi ham shunga o'xshash: "Demografik vaziyat – demografik jarayonlarni, aholining ma'lum davrdagi, aniq bir yildagi tarkibi va joylashishini, aholi taraqqiyotiga doir uzoq muddatli tendensiyalarni ifodalovchi tushunchadir. Bu tushuncha odatda biror mamlakatga yoki uning bo'lagiga nisbatan ishlatiladi."³

Taniqli geograf A. Alekseyev esa demografik vaziyatni o'tmish va kelajak tendensiyalarini nazarda tutmagan holda aniqlashga intiladi. Uning fikricha: "Demografik vaziyat – bu ma'lum hududda yuzaga kelgan tug'ilish, o'lish va migratsion harakat mutanosibligi bo'lib, bu mutanosiblik aholining shu davrdagi jins va yosh tarkibini hamda miqdor dinamikasini yuzaga keltiradi."⁴

Ayrim manbalarda demografik vaziyat nisbatan kengroq ma'noda ishlatiladi. Bunda "iqtisodiy-demografik vaziyat" tushunchasi qo'llaniladiki, u mamlakatdagi yoki mintaqadagi demografik jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy omillarni qamrab oladi.⁵

Mazkur tushunchaning qo'llanishi bejiz emas. Gap shundaki, u yoki bu mamlakatda yoki mintaqada demografik vaziyat turli omillar ta'sirida shakllanadi. Aholi miqdori va tarkibi tug'ilish va o'lish kabi sof demografik hodisalar natijasida o'zgaradi. Biroq ushbu demografik hodisalar ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy hayotning turli jarayonlariga hamohangdir. Aksariyat hollarda mazkur jarayonlar orasidan muhim va ikkinchi darajali omillarni tasniflash qiyin kechadi. Ayni paytda oqibatni sababdan ajratib tahlil qilish ham ilmiy xulosalar chiqarishga xalal beradi. Shu sababdan qator tadqiqotchilar "demografik vaziyat" o'rniga "iqtisodiy-demografik vaziyat" tushunchasini qo'llashni ma'qul ko'radilar. Bizning mamlakatimizda ham "demografik vaziyat" tushunchasining mazmuni, uning o'ziga xos xususiyatlari, ayrim jihatlari tahliliga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar e'lon qilingan.⁶

1 Qarang: Народонаселение. Энциклопедический словарь. – М.: Большая российская энциклопедия, 1994. – С.113.

2 Народонаселение. Энциклопедический словарь. - М.: Большая российская энциклопедия, 1994. - С.104.

3 Демографический энциклопедический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1989. - С. 409.

4 Алексеев А. Социально-экономическая география России. - М.: Ла Воря, 1995. - С. 109.

5 Qarang: Волынская Б.Н. Региональная демография. // Система знаний о народонаселении. / Под ред. Д.И.Валентя. - М.: Высшая школа, 1991. - С. 124.

6 Qarang: Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.М., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Тошкент: Изд. мед. лит-ры им. Абу Али Ибн Сино, 1998; .



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotchilarning barcha mulohazalari diqqatga sazovor, albatta. Biroq bizning fikrimizcha, ushbu mulohazalarda “demografik vaziyat” va “demografik o'zgarish” tushunchalari qo'shilib ketgandek tuyuladi. Gap shundaki, “demografik vaziyat” tushunchasi aholining konkret ijtimoiy-tarixiy davrdagi portretini, ahvolini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, demografik vaziyat aholi miqdori, tarkibi va joylashuviga qarab aniqlanadi. Ko'rinib turibdiki, demografik vaziyatning uch tarkibiy komponenti mavjud. Birinchidan, demografik vaziyat aholi miqdoriga qarab belgilanadi. Aholi miqdori aniq ilmiy uslub va usullar asosida aholini ro'yxatga olish tadbirlarini amalga oshirish orqali aniqlanadi. Ikkinchidan, demografik vaziyat aholi tarkibida yuzaga kelgan konkret holat bilan ham bog'liq. Odatda aholi tarkibi deganda individlarni biror bir xususiyatga asosan birlashtirgan guruhlar yig'indisini tushunadilar. Aholi ko'plab xususiyatlarga ega bo'lgani bois individlarni ham turli guruhlariga birlashtirish mumkin. Masalan, aholini ayollar va erkaklar, qishloq va shahar aholisi, oilalilar va bo'ydoqlar, iqtisodiy faol va o'zgarlar qaramog'idagilar, ma'lumotlilar va ma'lumotga ega bo'lmaganlar, yoshlar va keksalar va hokazolar miqdoriga qarab taqsimlash mumkin. Bunda istalgan fiziologik, ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy, etnomadaniy xususiyat asos vazifasini bajaraveradi, chunki individlar cheklanmagan xususiyatlarga ega. Biroq ularning ayrimlarigina aholining qayta ishlab chiqarilishi jarayoniga dahldor. Mutaxassislar aholining jinsiy, yosh va oilaviy tarkibini ana shunday xususiyatlar turkumiga kiritadilar.⁷

Aynan ana shu xususiyatlar aholi tarkibini belgilashda fundamental xarakter kasb etadi, ularning o'zgarishi esa demografik vaziyatning yangilanishiga olib keladi. Uchinchidan, demografik vaziyat aholining joylashishi, zichligi darajasini anglatadi. Aholining joylashuvi hududdagi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mutanosib bo'ladi. Tabiiy shart-sharoitlar qulay, turmush sharoiti oqilona tashkil etilgan hududda aholining zichligi darajasi ham yuqori bo'ladi. Aksincha, tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlar og'ir bo'lgan hududlarda 1 kvadrat kilometrda ancha kam aholi to'g'ri keladi. Binobarin, bir tomondan, tabiiy va turmush shart-sharoitlarini qulaylashtirmasdan turib aholi joylashuvini optimallashtirib bo'lmaydi. Aholi joylashuvining optimal zichligi esa 1 km²ga 57 kishini tashkil etmog'i darkor.⁸

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi joylashuvini chuqur tahlil qilmasdan, mamlakatdagi mehnat resurslarini to'g'ri baholab va joylashtirib bo'lmaydi, ijtimoiy taraqqiyot mo'ljallarini oqilona belgilash mushkul kechadi. Mamlakat budjetining taqsimlanishi, madaniy-ma'rifiy maskanlar faoliyatining tashkil etilishi, dolzarb ijtimoiy muammolarning hal qilinishi ham aholi joylashuvini, zichligi darajasini inobatga olishni taqozo etadi. Buning asosiy sababi shundaki, aholi – jamiyatda sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy jarayonlarning subyekti, barcha moddiy va ma'naviy ne'matlarning yaratuvchisi va iste'molchisidir.

“Demografik vaziyat” kategoriyasi bilan bir qatorda “demografik o'zgarish” tushunchasi ham mavjud. Demografik o'zgarish mamlakat yoki mintaqadagi demografik vaziyat dinamikasini ifodalaydigan tushunchadir. Demografik vaziyat, tabiiyki, qotib qolgan reallik emas. U dinamik xarakterga ega, ya'ni vaqt o'tishi bilan mazmunan va shaklan o'zgarib boradi. Ko'pgina mualliflar demografik vaziyatning o'zgarishida ma'lum qonuniyat mavjudligini qayd qiladilar. Masalan, amerikalik demograf F. Noutsteyn 1945-yildayoq mazkur qonuniyatni ifodalash maqsadida demografik o'tish nazariyasini ishlab chiqqandi. Bu nazariya keyinchalik ko'plab mutaxassislar tomonidan rivojlantirildi. Unga ko'ra, an'anaviy jamiyatda tug'ilish va o'lish miqdorining yuqoriligi bois aholi miqdori va tarkibi asta-sekinlik bilan o'zgarib boradi.

Industrial jamiyatning shakllanishi demografik o'tish jarayonini boshlab beradi. Bu jarayon to'rt bosqichda sodir bo'ladi. Birinchi bosqichda ovqatlanish va sog'liqni saqlash sifatining yaxshilanishi sababli o'lish ko'rsatkichlari tug'ilish ko'rsatkichlariga qaraganda tezroq pasayib boradi. Buning natijasida aholining tabiiy o'sishi tezlashadi, tarkibi o'zgaradi va demografik portlash sodir bo'ladi. Ikkinchi bosqichda tug'ilish ko'rsatkichlari o'lish ko'rsatkichlariga qaraganda tezroq kamayadi. Natijada aholining tabiiy o'sishi va tarkibiy o'zgarishlar sekinlashadi. Uchinchi bosqichda tug'ilish ko'rsatkichlarining kamayishi davom etadi, o'lish ko'rsatkichlari esa osha boshlaydi. Bugungi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlar aynan shu jarayonlarni boshidan kechirmoqdalar. Nihoyat, to'rtinchi bosqichda o'lish va tug'ilish ko'rsatkichlari bir xil darajaga yetadi va demografik barqarorlik davri boshlanadi. F. Noutsteyn fikriga ko'ra, demografik o'tish davri taxminan 2100-yilda intiho topadi. Jahondagi demografik vaziyat dinamik xarakterga ega bo'lgani tufayli muttasil yangilanib bormoqda. Bu jarayonning ayrim jihatlari bugungi kunda tendensiyaviy xarakter kasb etdi. Xususan, XXI asrga kelib jahondagi demografik o'sish sur'atlari sekinlashdi, bolalar o'limi miqdori kamaydi, tug'ilish koeffitsiyenti pasaydi, jahon aholisi tarkibida yil sayin keksa kishilar soni ortib bormoqda, rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga migratsiya ko'lamini kengaydi.

7 Qarang: Multilingual Demographic Dictionary. English Section. 2nd Edition.- Liege, 1982. - P.27.

8 Qarang: Наука и жизнь. - 1991.- №9. - С.54.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demografik vaziyat deganda ma'lum mamlakat aholisining konkret ijtimoiy-tarixiy davrdagi ahvoli tushuniladi. U aholi miqdori, tarkibi va joylashuviga qarab belgilanadi. Demografik vaziyat dinamik xarakterga ega, ya'ni shaklan va mazmunan o'zgarib boradi. Bunday demografik o'zgarish sof demografik omillar va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Demografik vaziyatga doir ma'lumotlarning umumlashtirilmasligi va tahlil qilinmasligi, ilmiy asoslangan demografik bashoratlarning yo'qligi demografik vaziyatga putur yetkazadi va oxir-oqibatda demografik inqirozni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алексеев А. Социально-экономическая география России. – М.: Ла Варяг, 1995. – С.109.
2. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.М., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Тошкент: Издательство медицинской литературы им. Абу Али Ибн Сино, 1998.
3. Волынская Б.Н. Региональная демография // Система знаний о народонаселении / Под ред. Д.И. Валентя. – М.: Высшая школа, 1991. – С.124.
4. Демографический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1989. – С.409.
5. Демографическая модернизация России, 1900–2000 / Под ред. А. Вишневого. – М.: Новое издательство, 2006. – С.10.
6. Народонаселение. Энциклопедический словарь. – М.: Большая российская энциклопедия, 1994. – С.113.
7. Наука и жизнь. – 1991. – №9. – С.54; Multilingual Demographic Dictionary. English Section. 2nd Edition. – Liege, 1982. – P.27.
8. Медков В.М. Демография. – М.: Инфра, 2003. – С.4.
9. Ионцева Е.А. Иммиграционные процессы России в XVII – начале XX вв.: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. – М.: ИЭ РАН, 2008.
10. Хейне П. Экономический образ мышления. – М.: Дело, 1994. – С.359.
11. http://referatiya.ru/referaty/show_referat.php?referat=30987

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.